ИНТЕРНАУКА

ISSN 2686-9810



СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК

научный журнал

номер 19(164) часть 11

г. Москва

www.internauka.org

ИНТЕРНАУКА
internauka.org

«СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК»

Научный журнал

№ 19(164)
Май 2021 г.

Часть 11

Издается с марта 2017 года

Москва
2021

УДК 08
ББК 97
С88

Председатель редакционной коллегии:
Еникеев Анатолий Анатольевич - кандидат философских наук, доцент, доцент кафедры философии КУбГАУ, г. Краснодар.

Редакционная коллегия:
Авазов Комил Холлиевич - доктор философии (PhD) по политическим наукам;
Бабаева Фатима Адхамовна – канд. пед. наук;
Беляева Наталия Валерьевна – д-р с.-х. наук;
Беспалова Ольга Евгеньевна – канд. филол. наук;
Богданов Александр Васильевич – канд. физ.-мат. наук, доц.;
Большакова Галина Ивановна – д-р ист. наук;
Виштак Ольга Васильевна – д-р пед. наук, канд. тех. наук;
Голованов Роман Сергеевич – канд. полит. наук, канд. юрид. наук, MBA;
Дейкина Алевтина Дмитриевна – д-р пед. наук;
Добротин Дмитрий Юрьевич – канд. пед. наук;
Землякова Галина Михайловна – канд. пед. наук, доц.;
Канокова Фатима Юрьевна – канд. искусствоведения;
Кернесюк Николай Леонтьевич – д-р мед. наук;
Китиева Малика Ибрагимовна – канд. экон. наук;
Кобулов Хотамжон Абдукаримович – канд. экон. наук;
Коренева Марьям Рашидовна – канд. мед. наук, доц.;
Кадиров Умарали Дусткабилович - доктор психологических наук;
Напалков Сергей Васильевич – канд. пед. наук;
Понькина Антонина Михайловна – канд. искусствоведения;
Савин Валерий Викторович – канд. филос. наук;
Тагиев Урфан Тофиг оглы – канд. техн. наук;
Харчук Олег Андреевич – канд. биол. наук;
Хох Ирина Рудольфовна – канд. психол. наук, доц. ВАК;
Шевцов Владимир Викторович – д-р экон. наук;
Щербаков Андрей Викторович – канд. культурологии.

С88 **«Студенческий вестник»:** научный журнал. – № 19(164). Часть 11. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. – 28 с. – Электрон. версия. печ. публ. – *https://studvestnik.ru/journal/stud/herald/164*

ББК 97

ISSN 2686-9810

© ООО «Интернаука», 2021

Содержание

O'zbek tilidagi maqolalar **4**

Gumanitar **4**

Bo'lim 1. San'at tarixi **4**

RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O`RTASIDAGI O`ZARO BOG`LIQLIGI 4
Yakubova Nafisa Odiljanovna
Abduhonova Zahro Olimjon qizi

РУС РАССОМ-ПЕДАГОГИ, ПРОФЕССОР А.П. ЛОСЕНКОНИ ҚАЛАМТАСВИР РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ 6
Холиқов Азимжон Абдулла ўғли
Жаббаров Ботиршер Ғуломович

Bo'lim 2. Adabiyot **9**

BU KALOM JON-U JAHONIMDIR MENING… 9
Mustafoyeva Gulmira Farhod qizi

Bo'lim 3. Pedagogika **11**

XORIJIY TILLARNI O`RGATISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH 11
Abrorova Maftuna Jamshidbek qizi
Tojiboyeva Nasiba Komil qizi

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ЯНГИЧА РИВОЖЛАНИШ ЙЎЛИДА 13
Абдунабиев Махсуджон Маматкарим ўғли

Bo'lim 4. Filologiya **15**

MUHOKAMANING SO’ZLASHUV USLUBIGA XOSLANISHIGA DOIR 15
Ismoil Xojaliyev
Avazbek Dadajonov

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA ANTROPONIM HAMDA PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI 17
O‘rinboyeva Ma’mura
Nuriddinova Yulduz

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan **20**

Bo'lim 5. Tarixi **20**

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРИХИДАН (“ТУРКЕСТАНСКИЙ СБОРНИК” АСОСИДА) 20
Бахтиёржон Тўйчиев

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДАГИ СИЁСИЙ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР. «ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ» ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ 22
Махамадалиев Лутфилло

Bo'lim 6. Iqtisodiyot **24**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRITILAYOTGAN XORIJIY INVISTITSIYALARNING STATISTIK TAHLILLARI 24
Mo'minova Hilola Qobuljon qizi
Umarov Suhrob Rustamovich

O'ZBEK TILIDAGI MAQOLALAR

GUMANITAR

BO'LIM 1.

SAN'AT TARIXI

RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O`RTASIDAGI O`ZARO BOG`LIQLIGI

Yakubova Nafisa Odiljanovna
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,
O'zbekiston, Guliston

Abduhonova Zahro Olimjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi,
O'zbekiston, Guliston

ANNOTATSIYA

Voqiylikni bo`yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir – biriga ta`sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg`unligi asosida tasvirlamoq zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to`g`ri topilgan ranglar uyg`unligi, go`zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go`zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Kalit so'zi: tasviriy san`at, rassom, madaniyat, qobiliyat, mehnat, muloqat, tabiat, gozallik.

Odatda yorqinligi va tusi bir – biriga yaqin bo`lgan ranglar o`zaro birlashadilar. Ranglar o`zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jaragdorlik kasb etib sifat o`zgarishlariga yuz tutishi ko`zga tashlanadi. Umumiy "kolorit" dan ajralib qolgan rang nomuvofiq – begona bo`lib ko`rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o`zaro bog`liqligi asosida quruladi.

Kolorit (italyancha Colonio, lotincha color – rang, bo`yoq) – tasviriy va amaliy san`at asarlarida voqiylikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o`zaro munosibligi.

Tasvirdagi turli ranglarning garmonik, go`zal tus birikmalari o`rtasidagi o`zaro bog`liqligi "kolorit" deb ataladi.

Voqiylikni ta`sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo`lgan kolorit asarning g`oyasi, mazmuni, davri uslubi hamda muallifning shahsiga bog`liq. Tarixda voqiylik tasvirida mahalliy ranglar ozmi – ko`pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko`proq foydalanish (o`rta asrlar san`atida) va voqelikni barchsa bo`yoqlarda (uning rang, tus, nur soya va boshqalardan foydalanib) rangdor ifodalash an`anasi shakillangan. Kolorit ranglar uyg`unligiga ko`ra, iliq (qizil, ssriq, zarg`aldoq) yoki sovuq (ko`k, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki to`q, rangdorligiga ko`ra, yorqin hira va boshqa bo`lishi mumkin.

Kolorit bizga olamning boy, rang – barang va go`zalligini ochib beradi. U musavvirga tasir holitini ifoda qilishida yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantruvchi, havotirli, mayus bo`lishi mumkin, shuningdek illiq va sovuq, yorqin va bo`g`iq bo`ladi.

Rangtasvir san`ati – rang va nur uyg`unligi san`atidir.

Voqiylikni bo`yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir – biriga ta`sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg`unligi asosida tasvirlamoq zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to`g`ri topilgan ranglar uyg`unligi, go`zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go`zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Amaliy san`at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, gilamdo`zlik, zargarlik, zardo`zlik, chitgarlik va boshqalarda kolorit muhim ahamiyatga ega. Ayniqisa naqqoshlik san`atida kolorit muhim o`rin tutadi. Naqqoshlik maktablarida har bir usullarning o`ziga hos koloritlariga ega. Xorazm naqqoshlik maktablarida va me`moray naqishlaridagi umumiy rang ya`ni koloriti moviy bo`lib, kishiga salqinlik, tinglantruvchi ya`ni simmetrik ranglardan foydalaniladi. Ayniqsa me`moriy naqishlarini kuzatar ekanmiz havo rang koloritda bezalgan naqshlar o`ziga hos joziba beradi. Xiva naqqoshlik maktabida asosiy kolorit sovuq ya`ni moviy rangni egallaydi.

Toshkentlik naqqoshlik maktabida asosini yashil, jigarrang, va havo rang koloritda bezaladi. Asosan yashil koloritda Jalil Hakimov ko`p ishlagan. Naqish Kompozitsiyalari ranglari bir – biriga nafis, yaqin va juda aniqlikda bajarilgan.

Toshkentlik naqqoshlik maktabining hozirdagi vakili Mahmud Turaev pushti, havo rang binafsha, yashil, jigarrang kabi koloritlarda bajaradi. Har bir koloritda bajarilgan naqishlari o`ziga hos joziba va ko`rinishga ega. Ham to`q, ham och rang koloritda bajarilgan. Tayir To`htaho`jaev o`ziga hos jigarrang oltisimon rang koloritda binolar va buyumlarni mohirona bezagan. Naqish kompozitsiyalariga nazar solib qarasangiz iliq koloritdagi ranglar kishiga ko`tarinki ruh, bayramona kayfiyat uyg`atadi. Farg`ona naqqoshlik maktabining namoyondasi Saidahmad Mahmudovni naqsh kompoziysiyalarida koloritga umuman bo`ysinilgan bo`lsada, lekin ko`pgina naqishlarda zamini iliq rang bilan sovuq ranglar kontrasti o`yini orqali bajarilgan.

Ushbu nomoyonda iliq va sovuq ranglar zaminida contrast berilib, har bir zamin ranglari o`ziga hos jozibaga ega. Ushbu naqishlar Farg`ona vodiysi tabiatga hos koloritda bajarilgan. Burglar, gullar ham ilik ham sovuq rangda bo`yalib pardoz berilgan.

Anvar Ilhomov ustozi Jlil Hakimovning an`ana asosida davom ettirib yashil va boshqa koloritlarda naqshu – nigoralar ishlab kelmoqdalar.

Ama`liy san`at turlari naqqoshchilik, kulolchilik, kashtachilik va boshqalarda kolorit birorta rang masalan zangori, yashil, qizil, jigarrang, binafsha, pushti kabilarning xukumronligiga asoslanadi, qolgan ranglar unga bo`ysundriladi.

Chunonchi jigarrang muhitida qolgan hamma rang tuslari jigarrang bo`ysindriladi.

Kolorit biror narsa yoki binolarning o`ziga hos tomonlari mazmuini ham ataladi. Badiiy asarning o`ziga hos xususiyatlari ya`ni davr, milliylik, psihologik holatni xullas voqiylik va boshqalarni o`ziga hos tomonlari yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda kolorit asar mazmunini va g`oyasini musiqadagi dirijor vazifasini bajaradi. Kolorit tushunchasini qiyomiga chiqarib o`rgatish tayyorlayotgan kadrlarimizni kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakillantrishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at ta`imi konsepsiyasi. - Toshkent.1995.
2. Tasviriy san`at o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. R. Hasanov. Toshkent -2006.
3. Rangtasvir Toshkent “Innovsiya- Ziyo”, 2019yil. S. Abdurasulov. N. Tolipov.

РУС РАССОМ-ПЕДАГОГИ, ПРОФЕССОР А.П. ЛОСЕНКОНИ ҚАЛАМТАСВИР РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Холиқов Азимжон Абдулла ўғли
Наманган давлат университети талабаси,
Ўзбекистон, Наманган

Жаббаров Ботиршер Ғуломович
Наманган давлат университети,
Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси кафедраси доценти,
Ўзбекистон, Наманган

ВКЛАД РУССКОГО ХУДОЖНИКА-ПЕДАГОГА, ПРОФЕССОРА А.П.ЛОСЕНКО В РАЗВИТИЕ РИСУНКА

Халиков Азимжон Абдулла оглы
студент
Наманганского государственного университета,
Республика Узбекистан, г. Наманган

Джаббаров Ботиршер Гуломович
научный руководитель, доц. кафедры
изобразительного искусства и инженерной графики
Наманганский государственный университет,
Республика Узбекистан, г. Наманган

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Петербург Бадиий Академияси профессори, рус рассом-педагоги А.П.Лосенконинг график тасвирлаш асосига ва қаламтасвирни умумтаълим мактабларида ўқув предмети сифатида ўқитилишига қўшган ҳиссаси ўрганиб чиқилган бўлиб, ундан ҳозирги кунда фойдаланиш масаласи баён қилинган.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется вклад профессора Санкт-Петербургской Академии художеств, русского художника-педагога А.П. Лосенко в основы графического изображения и преподавания рисунка как предмета в общеобразовательных школах, и описан вопрос его текущего использования.

Таянч иборалар: Петербург Бадиий Академияси, қаламтасвир устаси, рус рассом-педагоги, илмий-назарий асоси, Одам тана нисбатлари, перспектива, рассомлар учун ўқув қўлланма, катталаштириш ва кичрайтириш, умумтаълим мактаблари, ўқув предмети.

Ключевые слова: Санкт-Петербургская Академия художеств, мастер рисунка, российский художник-педагог, научно-теоретические основы, пропорции человеческого тела, перспектива, учебник для художников, увеличение и уменьшение масштаба, общеобразовательные школы, учебный предмет.

Замонавий тасвирий санъат таълими ҳам барча соҳаларда бўлгани сингари ўзида миллати ва динидан қатъий назар барча устозларнинг бой тажрибасини ўзида акс эттиради. Улардан қолган назарий ва амалий билимларга асосланган ҳолда ёшларга энг керакли ва зарур билимлар берилади.

1758 йил И.И. Шувалов ташаббуси билан Россияда ташкил қилинган Петербург Бадиий Академиясининг жаҳон тасвирий санъати ривожига қўшган ҳиссаси катта бўлган. Жумладан, Ўзбекистон тасвирий санъати ривожига ҳам ушбу академия таъсирини инкор қилиб бўлмайди.

У ерда жаҳонга машхур жуда кўплаб рассом-педагоглар фаолият кўрсатишган. Уларнинг орасида Антон Павлович Лосенкони алоҳида эътироф этиш керак.

1769 йилдан бошлаб Петербург Бадиий Академиясида қаламтасвирнинг моҳир устаси ва ажойиб педагог А.П. Лосенко фаолият кўрсатишни бошлайди. У қисқа ва сермазмун умри (1737-1773) давомида академик қаламтасвир фанининг ривожига улкан ҳисса қўшган рус рассом-педагоглардан бири ҳисобланади.

Лосенко 1937 йили Украинанинг Лгухов шаҳрида тавваллуд топади. Ёшлигида мусиқага бўлган қизиқиши ва жуда яхши овози билан қиролича Елизавета саройи хизматчилари эътиборини ўзига тортади ва саройга қўшиқчи сифатида ишга қабул қилинади. Ўн олти ёшга етганида эса овози бирданига пасайиб кетади. Аммо, бу вақтга келиб эса унинг рангтасвир санъатига бўлган қобилияти ривожланиб боради. Буни сезган “Жаноби олиялари кабинети” (Кабинет ее величества) уни И. Аргунов қўлида тахсил олишга топширади.



Расм 1. Одам бошининг турли хил кўринишдаги схемаси

1759 йили Академиянинг рангтасвир бўлимига ассисент сифатида қабул қилинади. 1760 йили эса Шувалов Лосенкони Франциянинг пойтахти Париж шаҳрига ўқишга юборади ва у ерда Жувеннинг шогирди бўлган Реуту қўлида тахсил олиб қайтади. 1763 йили иккинчи маротаба Париж Академисига ўқиш учун қайта юборилади ва бу сафар эса Давиднинг шогирди Вьен қўл остида тахсил олади.

1769 йилдан бошлаб Россия Бадиий Академиясида ўқитувчи сифатида фаолиятини бошлаган Антон Павлович қисқа муддат ичида, яъни орадан бир йил ўтиб Академик ва катта профессор лавозимига эга бўлади, 1772 йили эса академия директори этиб тайинланади. У ўзининг асосий диққат-эътиборини қаламтасвир ўқитишнинг амалий машғулотларигагина эътибор бериб қолмасдан, уни назарий муаммоларини ўрганишга ҳам қаратади. Натижада унинг ёрқин педагогик фаолияти тез орада кўпчиликнинг эътиборини тортади. Лосенкодан бошлаб рус академик мактаби ўзига хос асосий йўналишига эга бўлади.

Лосенко ҳар бир тасвирни ишлашдан олдин унинг илмий-назарий асосларини талабаларга тушунтиришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди, бу нарса, аввало, одам қоматини ишлашда ўз аксини топади. Бунинг учун у пластик анатомияни чуқур ўрганиб, одам танасини ўзига хос тенг бўлакларга бўлиниш қонуниятларига оид схема ва таблицаларни ишлаб чиқиб, ўқувчиларига кўрсатишдан бошлайди. Шу пайтдан бошлаб қаламтасвир ўқитиш методикаси, анатомия ва одам тана нисбатларини, перспективани жиддий ўрганишга асосланишни бошлайди. Рассом учун керакли бўлган бу назарий билимларни Лосенко ўзининг ёрқин педагогик маҳорати ва юксак ишончи билан ўқувчиларига ўргатган.

Лосенконинг хизматлари нафақат Академияда қаламтасвир ўқитишни яхши йўлга қўйганлиги, балки уни ривожланишига ҳам катта эътибор берганлиги билан диққатга сазоввор ҳисобланади. Уларни ичида қуйидагиларни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим:

1. ***Одам қомати нисбатларини ва академик қомат нисбатларини тахлил қилишни кенг йўлга қўяди.*** Бу иш уч босқичдан иборат бўлиб, биринчи ва иккинчи босқич эркак киши қоматини бўйига ва энига тасвирлашга қаратилган бўлса, учинчи босқич эса профил тасвир ишлашга бағишланган. Одам танасини математик тахлилини Лосенко қисм ва бўлакларга бўлиш орқали амалга оширади. Бироқ, математик тахлил деганда натурани циркул ва чизғич орқали ўлчаб олишни эмас, балки кўз ёрдамида чамалаш орқали амалга оширишни тавсия этади.

2. ***Рассомлар учун анатомиядан ўқув қўлланма яратган.*** Афсуски, нашр қилинмаган, айрим тасвирларгина сақланиб қолган холос. Улардан Россия ўқув юртларида ҳозирда ҳам фойдаланиб келинади.

3. ***Одам қоматини қандай қилиб кичайтириш ва катталаштириш бўйича қўлланма ҳам яратади.*** Аммо, бу қўлланма ҳам чоп қилинмаган, бироқ уни Ястрелибов томонидан кўчирилган нусхалари яхши сақланиб қолган бўлиб, Ростовцевнинг “История методов обучения рисованию” (М, 1982, олий ўқув юрти талабалари учун ўқув қўлланма) қўлланмасида илк бор нашр қилинган.

4. ***Рассом асарларининг асл нусхаларидан тузилган альбом – қўлланма тайёрлайди.*** Ушбу қўлланма махсус мактаб ўқувчилари учун мўлжалланган бўлиб, у одам боши ва қомати қаламтасвирининг асл нусхалари асосида тузилган. Лосенко асл нусхалардан кўчирма олишга оддий бир механик ҳолат деб эмас, балки қаламтасвир устасини, етук рассомни тайёрлашда энг зарур бўлган қўл ва кўз ҳаракати ривожлантирувчи омили сифатида қарайди.

Бу каби ўқув қўлланмаларга академия тарбияланувчилари жуда ҳам муҳтож эдилар. Лосенко қаламтасвирдан ўқув қўлланмалар борасида нафақат рус Бадиий Академияси, балки ўша даврдаги академиялари орасида энг яхшиси ҳисобланган француз Академияси ҳам қашшоқлигини жуда яхши тушуниб етган рассом-педагоглардан бири бўлган.

XVIII аср охирига келиб Антон Павлович Лосенко каби фидоий инсонларнинг сайъи-ҳаракати билан Россияда қаламтасвир умумтаълим мактаблари ўқув предмети сифатида кенг тарқалди.

Замонавий таълимда Лосенко тамонидан ишлаб чиқилган ўқитиш услубидан фойдаланиш ҳам дарс самарадорлигини оширишга яқиндан ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жаббаров Б. Ғ. Академик қаламтасвир асослари. Қўлланма. -Н.; 2016.
2. Н.Н. Ростовцев. История методов обучения рисованию. М.; 1982.
3. О. Авсиян. Натура и рисование по представлению.- М.; 1985.

BO'LIM 2.

ADABIYOT

BU KALOM JON-U JAHONIMDIR MENING…

Mustafoyeva Gulmira Farhod qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti, O`zbek tili va adabiyoti fakulteti 2- bosqich talabasi,
O`zbekiston, Navoiy

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, butun bir turkiy xalqlarining asil farzandi bòlmish, Chingiz Aytmatovning “Asirga tatigulik kun” asari va undagi obraz hamda ilgari surilgan g`oyalar haqidadir.

Kalit so`zlar: chingiz Aytmatov, “Asirga tatigulik kun”, ona, manqurt.

Biz turkiy xalqlar òz nonimizni òzimiz yeb, òz sòzimizni baralla ayta oladigan kunga yetgunimizcha qancha qurbon berdi bu kòxna zamin.... Biz qurbon deb atayotgan tariximizning zabardast vakillari bòlmish adabiyotimizning gultojlaridir. Sovet davrida ijodkorlarimiz qilich yechib kurashmasalarda, qalam bilan qilichdan-da òtkirroq zarbalar berishdi. Hatto òz jonini òylamay avlodining erkin, hur yashashi uchun kòksini qalqon qildi. Ulardan biri butun turkiy xalqlarning asil farzandi bòlmish Chingiz Aytmatovdir. Chingiz deb nom berilishining òzida ham keng ma'no mujassamdir. Sababi u ismiga monand sof, vijdon bilan yashadi va toza ijod qildi. Kimlarningdir dağdağasidan qòrqib, ular istagandek asarlar yozadigan manqurt bòlib qolmadi. Aksincha, yuragida neki alami, istirobi, dardi bòlsa, tonmay, tolmay ijod qildi. Zamonasining kamchiliklarini qanday bòlsa, shundayligicha ochiq oydin quyma satrlarga soldi. Chingiz Aytmatov bolaligidanoq kòp zahmat, mashaqqat kòrdi. Uning otasi Tòraqul Aytmatov ham tiniq fikrlaydigan, savodli shaxs edi. U yurti hisoblanmish Qirğizistonda savod-sizlikni tugatish, eliga zamonaviy madaniyatni olib kirish uchun joni ham qonini ayamagan fidoyi insondir. 1937-yil shòrolar tomonidan zamonasining jonkuyar insoni Tòraqul Aytmatov hurfikrligi sabab yòq qilindi. Shu ondan sòng aytmatovlar oilasi boshiga qora kunlarning adoği yoğildi. Ularning oilasi qishloq (Shakar ovuli) qa qaytishga majbur bòldi. Shu sababli u milliylik, milliy an 'analar, urf-odatlar zamirida tarbiya topdi. Uning òsmirlik yillari 2 -jahon urushi òchoğida òtdi. Shunday bòlsa-da, zamonasiga yarasha bilim kòrdi. Òqish, bilim olish qiyin òtgan davrda ham òqish, izlanishdan bir dam bòlsa-da, tòxtamadi. Rus va Qirğiz adabiyotini sevib òqidi. Chingiz Aytmatov yoshligidan haydovchi bòlishni orzu qilgan bòlsa ham bu orzusi amalga oshmaydi. Hayot uni zooveterenariya kasbiga yònaltiradi. Lekin Chingiz Aytmatov adabiyotga qadam qòyadi. Ijod uni òziga ohanrabodek chorlayveradi. Shu sababli Chingiz Aytmatov inson ruhini tozalovchi "Jamila", "Yuzma-yuz", "Birinchi muallim", "Alvido, Gulsari" "Oq kema" kabi asarlar yaratdi. Shu jihatdan Chingiz Aytmatovni inson ruhining haydovchisi desak mubolağa bòlmaydi. Chunki haydovchi inson jismini xoxlagan manzilga yetkazsa, Chingiz Aytmatov inson ruhini u xoxlagan manzil "ODAMIYLIK" sari yetaklaydi. Shunday murakkab, tahlikali zamonda shunday òtkir asarlar yozdi-ki, kitobxon qalbi larzaga keldi. U 1980-yilda yaratgan "Asirga tatigulik kun" romani inson ongini larzaga keltirdi. Bu asarda butun insoniyatga daxldor muammo aks ettirilgan. Unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan, odamiyligini yòqotish darajasiga yetgan manqurt kimsalar haqidadir. Bu romanga adib Arman yozuvchisi Grigori Narikatsining "Musibatnoma" asaridagi "Bul kitob jism - u fiğonimdir mening, bu kalom jon-u jahonimdir mening" jumlasini epigraf sifatida olgani ham bejiz emasdir gòyo. Haqiqatda bu asar uning uchun qolaversa, butun insoniyat uchun jon-u jahonning òzginasidir.....

Bu asarda manqurt deb atalgan Jòlomon obrazi orqali ijodkor nima demoqchi? Sababi manqurt ongidan fikrlashidan ayrilgan, nima qilayotganini anglay olmaydigan inson deb atashga noloyiq mavjudotdir. U bu obraz orqali zamonamizda ham bu sòz òz tastiǵini yòqotmaganini zamonaviy manqurtlar oldida Jòlomon shunchaki taqdir qurboni ekanini isbotlamoqchi gòyo. Qandaydir dunyo yumushlari, inson qadri oldida bir pulga arzimas tashvishlarini ròkach qilib ota-onasini yòqlamay qòygan, hatto oxirgi manzilga kuzatish òrniga òz shaxsiy muammolariga aralashib yurganlar oramizda topiladi. Chingiz Aytmatov mana shunday manqurtlikka yuz tutayotgan insonlarga achinadi, bundan yuragi azob chekadi. Va bu asar dunyoga keladi. Chingiz Aytmatov bu romani bilan yana shuni ham qòrqmasdan òsha mustabid davrda chop ettiradi-ki, sovetlar davrida aza janoza qattiq qoralangan, bunday joylarga borganlar hatto ishidan vatanidan judo qilingan. Asar qahramoni Sobitjonni xuddi shu ong ta'sirida qolgan zamona manqurtidek tasvirlaydi. Bunday romanni òsha zamona silsilasida chop etishning òzi katta bir jasoratdir. Sovet an'anasiga berilgan ulkan zarbadir desak òrinli bòlar. Sòzimiz oxirida demoqchimizki, Alloh bizga bir bor tuhfa etgan oliy ne'mat ota-onalarimizning borida qadriga yetaylik. Biz uchun borini bergan yagona zotlar uchun dunyo yumushlarini bir chetga surib, ulardan xabar olaylik. Bir chimdim mehrimizni, muhabbatimizni ulardan ayamaylik. Zero, "ota rozi-xudo rozi" yoinki "Jannat onalar oyoǵi ostidadir".....

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Asirga tatigulik kun” “Toshkent” (2019).
2. 9-sinf adabiyoti “Toshkent” (2013).
3. http://www.Kitobxon.com.

BO'LIM 3.

PEDAGOGIKA

XORIJIY TILLARNI O`RGATISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Abrorova Maftuna Jamshidbek qizi
Toshkent davlat agrar universiteti "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash" fakulteti talabasi,
O'zbekiston, Toshkent

Tojiboyeva Nasiba Komil qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta`lim" fakulteti talabasi,
O'zbekiston, Toshkent

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarini o'qitishda yordam beradigan zamonaviy raqamli vositalar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Maqolada ushbu vositalarning turlari, shuningdek, ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, Internet, raqamli ta'lim vositalari.

Texnologiyalar har yili tez rivojlanib borayotgan hozirgi kunda chet tili darsini prezentatsiyalar, video va audio yozuvlar kabi multimedia komponentlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan loyiha faoliyati o'quvchilarga o'z salohiyatini ochib berishda, o'zlarini namoyon etishda va ijodiy ishlarda ko'p yordam berishi mumkin.

Multimedia texnologiyalari darsning didaktik maqsadlariga maksimal darajada javob berishi kerak. Talabalar materialdan to'liq xabardor bo'lishlari uchun material oson va tushunarli bo'lishi kerak. Talabalarning qiziqishi ham inobatga olinishi zarur. Material zerikarli yoki monoton bo'lmasligi kerak. Darsning kerakli qismi bu - ijodiy mustaqil ish hisoblanadi. Bu talabalarning mustaqilligini, ijodkorligini, mantiqiy qobiliyatini, taqqoslashni, faraz va xulosalarni shakllantirishni rivojlantiradi. Shuningdek, biz talabalarning nutqi va aqliy faoliyati haqida unutmasligimiz kerak, chunki ular o'qitishda asosiy narsalardan biri hisoblanadi.

Asosiy usullardan biri bu loyiha usuli. Bu o'quvchilarning muammoni (loyihani) mustaqil ishlab chiqishi yordamida o'rganish maqsadiga erishishga imkon beradi. U o'quvchilarni, odatda, o'rta maktab o'quvchilari uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniq hal qilishga olib borishi kerak.

Loyiha usuli tufayli talabalar o'zlarining mavzularini faqat o'zlarining tasavvurlari bilan cheklangan holda tanlashlari mumkin, shuningdek har qanday usul, vosita va manbalar yordamida o'z mavzularini erkin namoyish etishlari mumkin. Loyihalar, avvalambor, talabalarning guruhdagi birlashishiga va jamoada ishlash qobiliyatiga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning kompyuter bilan ishlash ko'nikmalari, turli manbalardan ma'lumot qidirish mahorati tobora takomillashib bormoqda va agar ish butunlay chet tilida olib borilsa, albatta, til bilan ishlash darajasi oshadi.

Chet tili darsida axborot texnologiyalari lingvistik tarkibdagi turli xil videofilmlardan, alohida matnli audio yozuvlardan, multimedia loyihalari va taqdimotlarini yaratish qobiliyatidan, lug'atlar va ma'lumotnomalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan prezentatsiyalar, loyihalar, saytlar, nashrlar yaratishda; didaktik materialni ishlab chiqish va yaratishda; onlayn sinov; veb-kameralar

yordamida telekonferentsiya o'tkazishda; raqamli kutubxonada; multimedia kurslari, Internet-resurslardan foydalanishda ishlatiladi.

Uzoq vaqt davomida ovozli, video, tasvirlar, taqdimotlar, o'yinlar kabi multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni uzatishga imkon beruvchi DVD-disklar mavjud. Ushbu yondashuv talabalarga individual asosda ishlashga imkon beradi, darsni yanada qiziqarli va samarali o'tkazadi, shuningdek o'qituvchining ishini osonlashtiradi. Biroq, muhim narsa shundaki, kompyuter o'qituvchini to'liq o'rnini bosa olmaydi, chunki kompyuter butun sinf yoki guruhning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi, xuddi o'qituvchining vazifasi bo'lgan o'quv dasturini ishlab chiqa olmaydi.

Kompyuter bilan ishlash nafaqat o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi, balki o'quv vazifalarini taqdim etilishini qiyinchilik darajasiga qarab tartibga solishga va to'g'ri qarorlarni qabul qilishga da'vat etadi. Bundan tashqari, kompyuter o'qishga salbiy munosabatda bo'lishning muhim sabablaridan biri - materialni tushunmaslik yoki bilimdagi muammo tufayli muvaffaqiyatsizlikka olib kelishni butunlay yo'q qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.A. Efremenko. “Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish”. M., 2007. - 335s.
2. V.B. Popov. “Internet texnologiyalari va ta'limni rivojlantirish”. Voronej, 2001. - 256-lar.
3. “Talaba” ilmiy jurnali. Rossiya, 2020.
4. N. Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov. “Umumiy pedagogika” 2012, Toshkent.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ЯНГИЧА РИВОЖЛАНИШ ЙЎЛИДА

Абдунабиев Махсуджон Маматкарим ўғли
магистрант,
Фарғона давлат университети,
Ўзбекистон, Фарғона

АННОТАЦИЯ

Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизими соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлардан кўзланган мақсад – ҳар томонлама соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш ҳамда мактаб таълимига тайёрлашдан иборатдир.

Мақолада Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим тизими янгича ривожлантириш истиқболлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: таълим, тарбия, инновация, педагогика, мактабгача таълим.

Бугун Ўзбекистонда ёш авлод тарбиясининг бирламчи ва асосий бўғини ҳисобланган мактабгача таълим тизимини юксалтириш, боғчаларни моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, уларни моҳир педагог кадрлар билан таъминлаш, болаларни умумтаълим муассасаларига сифатли, самарали тайёрлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек - «Биз мактабгача таълим тизимини қайта кўриб чиқиш масаласини давлат сиёсати даражасига кўтариб, бу борада катта ишларни бошладик. Агар шу ишни ҳар томонлама пухта ўйлаб амалга оширмасак, бутун таълим тизимида сифат ўзгаришига эришишимиз, таълимнинг узлуксизлигини таъминлашимиз қийин бўлади» [1].

Президент Шавкат Мирзиёев томонидан мактабгача таълим муассасалари тармоғини ҳозирги замон талаблари ва стандартлари асосида ривожлантириш, уларни реконструкция ва модернизация қилишга катта эътибор қаратилмоқда. Жумладан, “Мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган дастур”и кенг кўламли стратегик мақсадлар, муҳим вазифалар белгилангани билан аҳамиятлидир. Айниқса, келгуси беш йилликда 2200 та мактабгача таълим муассасасининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, жумладан, қишлоқ аҳоли пунктларида янги мактабгача таълим муассасаларини қуриш, уларни замонавий талабларга жавоб берадиган инвентар-ускуналар, ўқув-методик қўлланмалар, мультимедиа ресурслари билан таъминлаш ҳамда ушбу мақсадлар учун жами 2,2 триллион сўм маблағ ажратилиши кўзда тутилган ушбу қарор ўз ичига нечоғлик кенг кўламли вазифаларни қамраганини кўрсатади.

Шу билан биргаликда, Президент Шавкат Мирзиёевининг 2017 йил 30 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги [2] фармони бу борада амалга оширилаётган ишларни янги босқичга кўтарди. Айниқса, унинг ташаббуси билан мактабгача таълим вазирлигининг ташкил этилиши жуда катта воқеалик бўлди [3]. Қисқа муддат ичида бу соҳада йигирмадан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилиниши мактабгача таълим тизимини ҳуқуқий базасини мустаҳкамлади.

Барчага бирдек маълумки, бугунги кунда ҳар қандай давлат жаҳон тажрибаларини ўрганмасдан, дунёдаги етакчи давлатларнинг илм-фан ва техника соҳасида эришган ютуқларини қабул қилмасдан туриб ривожлана олмайди. Шунга кўра, ҳозирги кунда Ўзбекистон республикаси иқтисодиётини, шу жумладан, мактабгача таълим тизимини ривожлантиришда хорижий тажрибаларни кенгроқ ўрганиш, уларнинг самарали ижросини таъминлашда муҳим асос бўлиб хизмат қилишини тушуниб олиш қийин эмас. Хусусан, болаларни ҳар томонлама интелектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожлантириш шароитларини яратиш, мактабгача таълим сифатини ошириш, таълим-тарбия жараёнига жаҳон амалиётида кенг қўлланиладиган замонавий таълим дастурлари ва технологияларини

жорий этиш, мактабгача таълим муассасаларига педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш механизмини такомиллаштиришдан иборат долзарб вазифаларни бажаришда хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибасига таяниб иш кўриш зарурат туғилди. Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистонда мактабгача таълимнинг муқобил шаклларини яратишда хориж тажрибаси қўлланилмоқда. Хусусан, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 июлдаги «Мактабгача таълим соҳасига инновацион ёндашувларни жорий этиш лойиҳаларини амалга ошириш учун экспериментал майдончаларни ташкил этиш чора- тадбирлари тўғрисида»ги 605- сонли қарори асосида Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек туманидаги 324-сон давлат мактабгача таълим ташкилоти ва Тошкент шаҳар Миробод туманидаги 34- давлат мактабгача таълим ташкилотида комплекс лойиҳани амалга ошириш учун доимий базавий экспериментал майдонча сифатида танлаб олинди.

Мактабгача таълим тизимини янада ривожлантириш мақсадида 2019 йил 23 сентябр куни Мактабгача таълим вазирлигида мактабгача таълим ташкилотларида Сингапур таълим тизими ваўқитиш методологиясини фаол жорий этишни кўзда тутувчи ҳамкорлик меморандуми имзоланди. Бу меморандумда мактабгача таълим тизимида монтесорри усулида ишловчи педагогларни тайёрловчи ўқув марказини ташкил этиш ва хорижий тажриба асосида фаолият кўрсатувчи мактабгача таълим ташкилотини яратиш лойиҳаларини ҳамкорликда амалга ошириш масалалари муҳокама қилинди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳозирги даврда мактабгача таълим тизимига қаратилаётган катта эътибор келажакда юксак салоҳиятли, маънавиятли инсонларни етишиб чиқишига замин яратади. Мактабгача таълим тизимининг бугунги кундаги ҳаётий талаб ва эҳтиёжлари, соҳада ечимини кутаётган масалалар хорижий илғор тажрибаларни ўрганиш миллий қадриятларимизга хос янги имкониятларни яратишгахизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 октябр куни мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан.
2. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 30 сентябрда «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 5198– сонли фармони.
3. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 30 сентябрда «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» ги 3305– сонли қарори.
4. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 30 сентябрда «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 5198– сонли фармони.
5. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 30 сентябрда «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» ги 3305– сонли қарори.
6. Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Форум молодых ученых, (5), 9-12.
7. Karimov, U., & Ergasheva, D. (2020). EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS. Теория и практика современной науки, (5), 18-20.
8. Karimov, U., & Kasimov, I. (2018). THE IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF DISTANCE EDUCATION. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1186-1187).
9. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1368-1372).

BO'LIM 4.

FILOLOGIYA

MUHOKAMANING SO'ZLASHUV USLUBIGA XOSLANISHIGA DOIR

Ismoil Xojaliyev
Farg'ona Davlat universiteti dotsenti,
O'zbekiston, Farg'ona

Avazbek Dadajonov
Farg'ona Davlat universiteti 2-kurs magistranti,
O'zbekiston, Farg'ona

ANNOTATSIYA

Maqolada muhokama nutqining suzlashuv uslubidagi ko'rinishi va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. So'zlashuv uslubida muhokama nutqining shakllanishi, uning asosiy belgilari aniqlangan.

Kalit so'z va iboralar: muhokama nutqi, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, og'zaki nutq, til vositalari, muhokama ob'ekti, elliptiklik, nutq tipi, hukm, xulosa, tasvir, rivoya, muhokama, fikr.

Ma'lumki, nutq uslublarining so'zlashuv, publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy kabi asosiy turlari mavjud. Ular orasida so'zlashuv uslubi, asosan, og'zaki nutq shaklida namoyon bo'ladi. Bu uslub ayni shu jihati bilan ham boshqa uslublardan farq qiladi. So'zlashuv uslubining adabiy so'zlashuv turi ham, oddiy so'zlashuv turi ham og'zaki shaklda voqelanadi. Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik aloqa-aralashuvda yetakchilik qiladi. So'zlashu uslubiga hos nutq yozma shaklga ko'chirilganda ham uning asosiy belgilari saqlanadi.

So'zlashuv uslubi – kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qilishidir. Uslubning bu turi o'ziga xos ish ko'rish sharoiti, ya'ni fikr olishuvning bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi bilan shuningdek, ohang, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressiv-emotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan: *farzand – jujuq, bola dunyodan o'tmoq – jon bermoq, o'lmoq, imtihondan o'ta olmaslik – imtihondan yiqilmoq* kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so'zlashuv uslubiga xos. So'zlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklarga ham ega bo'ladi.

So'zlashuv uslubida muhokama o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Chunki kundalik hayotda odamlar qizg'in bahs-munozaralarga kirishadi. Ayniqsa, oddiy so'zlashuv uslubi bunday muhokamalarga boyligi bilan ajralib turadi. So'zlashuv uslubi adabiy tili meyorlaridan deyarli holi uslubdir. Bu uslubda erkinlik barqaror. Shuning uchun ham muhokama bu natq turida o'ziga xos tarzda shakllanadi. Chunki fikr egasi, nutq ishtirokchilari til unsurlaridan erkin foydalanishi mumkin.

So'zlashuv uslubi o'zi ikkiga bo'linadi. Og'zaki va yozma. Og'zaki uslbuda asosan suhbatdoshlar mavjud muammolar haqida fikr yuritadi, biror narsan-hodisa haqida ma'lumot beradi yoki biror voqeani so'zlab – hikoya qilib beradi. Agar bir narsa haqida fikr yuritsa, muhokama ntuqi, biror narsaning belgilarini aytib, sanb ko'rsatib tasvirlab bersa, tasvir, biror voqea-hodisa haqida hikoya qilib bersa, rivoya nutqi shakllanadi.

So'zlashuv nutqida ko'pincha muhokama tugallanmagan holatda bo'ladi. Muhokama nutqiga xos bo'lgan belgilardan fikr, qiyoslash, solishitirish mavjud bo'ladi, ammo hukm chiqarilmaydi. Hukm yashirin holatda namoyon bo'ladi yoki hukm chiqarishni tinglovchiga havola qilinadi:

Kamol raisning oti asli choʻbir ort, uni bedov deb boʻlmaydi, – fikrini davom ettirdi Gʻuchchi chol. – Choʻbirning ming qashqasi boʻlsayam bir pul, choʻbirligicha qoladi. Nima dedingiz?

(Murod Muhammad Doʻst "Mustafo")

Yuqoridagi parcha muhokama nutqiga misol boʻla oladi. Unda voqea-hodisa yoki biror buyumning belgilari berilmagan. Aynan nutqda otning belgilari, ot haqidagi boʻlib oʻtgan voqea bayoni yoʻq. Bu oʻrinda u haqidagi fikr berilmoqda. Ya'ni Kamol raisning oti choʻbir (xashaki) ot. Choʻbir otning qashqasi boʻlsa ham choʻbirligicha qoladi. Choʻbir otda qashqa boʻlishi uni zotdor qilib qoʻymaydi.

– *Mana, masalan, – davom etdi Gʻuchchi chol, – Soli polvonning oʻzi bemazaroq odam, lekin bedovi yaxshi, bedovini hech yomon deyolmaysan.*

(Murod Muhammad Doʻst "Mustafo")

Bu parcha esa, Soli polvonning oʻzi bemazaligi, ammo oti (bedovi) yaxshi ekanligi, shuning uchun otning egasi bemaza boʻlsa ham uning bedovini yomon deb boʻlmasli bayoni berilgan. Bu oʻrinda ham xulsa odning egasi yomon boʻlsa ham uning zoti yaxshi boʻlsa, otni yomon deb boʻlmaydi, degan xulosa beriladi.

Soʻzlashu nutqi boshqa uslublardan oʻzining elliptik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi. Chunki soʻzlashuv jarayonida suhbatdoshga ma'lum boʻlgan ma'lumotlar qayta aytilmaydi. Bu ma'lumotlar har ikki tomonga (soʻzlovchi va tinglovchi) ham ma'lum boʻlgani uchun tushurib qoldiriladi. Soʻzlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham bu ma'lumot aniq boʻladi. Soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan bu jihat muhokama nutqini ham soʻzlshuv uslubida qisqargan holatda shakllanishiga olib keladi. bunda nafaqat ma'lum soʻz va iboralar, sintaktik qurilmalar, balki nutq rivojidan kelib chiqadigan hukm-xulosa ham qisqargan shaklda boʻladi:

– *Bolta gʻirt muttaham! – dedi Gʻuchchi chol. – Eski zamon boʻlsa, Boltadan qip-qizil qaroqchi chiqardi!..*

(Murod Muhammad Doʻst Mustafo")

Bu parchada muhokama obekti Bolta qassob. U muttaham odam. Eski zamon boʻlganda undan qip-qizil qaroqchi chiqardi. Xulsa: eski zamonda muttaham odamlar qaroqchi boʻlgan. Bolta qassob ham mutaham. Demak u ham qaroqchi. Soʻzlashuv uslub talabidan kelib chiqib, hukm-xulosa qisqarishga uchramoqda.

– *Bolta noma'qulni yebdi, – dedi Ibodulla maxsum. – Siz, Mustafo, agar oʻxshasangiz ham, yaxshi ayolga oʻxshaysiz...Yuvosh odamsiz.*

(Murod Muhammad Doʻst Mustafo")

Bu misolda muhokama nutqi oʻziga xos tarzda shakllangan. Gap Mustafo haqida ketsa ham, gap mazmunidan ikkita hukm-xulosa kelib chiqadi. Birinchi xulosa yaxshi ayol yuvosh boʻladi. Mustafo ham yuvosh. Shuning uchun ham u yaxshi odam.

Demak, nutq tiplari har bir uslub talabidan kelib chiqib, oʻziga xos koʻrinishda shakllanadi. Soʻzlashuv uslubidagi elliptiklik, soʻzlarni tanlab ishlatmaslik, qisqalik muhokama nutqining shakllanishiga ham ta'sir etadi. Bu uslubda koʻpincha nutq mazmunidan kelib chiqadigan hukm-xulosa nutqiy bayonda ifodalanmaydi, ammo nutq mazmunidan ayon boʻladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. – Toshkent: "Oʻqituvchi" 1985, 111-bet.
2. Xojaliyev I.T. Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent., 1998. – B. 22.
3. Ismail Hojaliyev Extralinguistic signs of the officialstyle // EPRA International Journal of Research & Development [IJRD] Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Jurnal, Volume: 6, Issue: 11, November 2020, 456-458.
4. Hojaliev Ismoil Tojibaevich, Noverbal means expressing the verbal personality // EPRA International journal of research and Development [IJRD] Volume: 5 |Issue:11| November 2020, 587-589.

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA ANTROPONIM HAMDA PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

O‘rinboyeva Ma’mura
Farg‘ona Davlat universiteti 2-kurs magistranti,
O'zbekiston, Farg‘ona

Nuriddinova Yulduz
Quva kasb- hunar maktabi o‘qituvchisi,
O'zbekiston, Farg‘ona

ANNOTATSIYA

Antroponimlar haqida qisqacha ma’lumot, o‘zbek antoponimlari, Abdulla Qahhor ijodida qo‘llangan antroponimlar badiiy asarlaridan olingan parchalar bilan ilmiy dalillangan. Paremalar haqida ma’lumot berilib, ular ham yozuvchi ijodidan olingan adabiy parchalar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: antroponim, parema, lingvokulturologiya, paremiologiya, parema, onomastika.

Tilshunoslikda ismlarni o‘rganuvchi bo‘lim onomastika, ya’ni nomshunoslik, kishi ismlari esa antroponimlar deya yuritiladi. Antroponimlar (ism, ota ism, familiya yoki laqab va taxallus) ning yaratilishi muayyan ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi. Ma’lumki, **antroponim** (yunoncha: antopos- antopos+onoma- atoqli ot) - kishi atoqli oti kabi ma’nolarni anglatadi. Ma’lum bir turda mavjud bo‘lganbo‘lgan barcha kishi atoqli otlari mavjud.

O‘zbek antroponomikasining asoschisi E.A.Begmatov hisoblanadi. U 1965- yilda “O‘zbek tili antoponomikasi” degan mavzuda nomzodlik ishini himoya qilgan. Olim o‘zbek antroponomiyasining fondini tashkil qiladigan antroponomik birliklaga quyidagilarni kiritadi:

1. Ismlar- konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Tahalluslar.
4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash.
5. Sahxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida.
6. O‘tgan asrning 20-30- yillarida rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari [2, 11].

O‘zbek antroponomikasining yana bir muhim muammolaridan biri poetik yoki badiiy antroponomika masalalari bilan bog‘liq. Ya’ni badiiy asarda qo‘llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqatgina atash mazifasini emas, balki bir nechta vazifaviy- uslubiy hususiyatlarni ifodalash uchun hizmat qiladi. Abdulla Qahhor asarlaridagi antroponimlarni lingvukulturologik jihatdan tahlilga tortadigan bo‘lsak yozuvchi asarlarida uchrovchi antroponimlar ham xalqning hayotini, madaniniyati, mentolitetini ham to‘la yoritib began desak xato bo‘lmaydi. Abdulla Qahhor qahramonlariga ham shu qadar topqirlik,mahorat bilan ism tanlaganki, uning o‘zidanoq kitobxon dastlabki tasavvurni hosil qilishi mumkin.

S.E.Kenjayeva o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek ismlarini bag‘ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istaklarga ajratib tasniflaydi [3].

Bag‘ishlov ismlarini qo‘yishda sabab chaqaloqning tug‘ilishi, farzandli bo‘lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko‘magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o‘sha taxmin qilingan, e’tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi. Bag‘ishlov ismlarining o‘zi bolaning tug‘ilishi va etnologik tushunchalarga nisbat berish orqali namoyon bo‘ladi. Bu kabi ismlarning turlicha ma’nolarni ifodalashini tasniflash mumkin:

1. Farzandli bo‘lish orzu qilib kutilgan va bolaning tug‘ilishi ana shu tilaklarning amalga oshishiga ishora qilinadi.

Umida. Xayrixoningiz bilan qo'sha qaring! (Qo'lidan chiqib qochadi.)

Karimjon (ketidan chopadi. ***Umidaxon! Umidaxon!*** ("Ayajonlarim")

2. Chaqaloqning dunyoga kelishi oilaning taskin topishi, tinch va osoyishta , nasibali, rizqli bo'lishi uchun sabab deb hisoblanadi.

Nasiba. *Yasliga nima qipti? Mening o'zim ham yaslida, bog'chada o'sganman.* ("Og'riq tishlar")

3. Oilaga kelgan omad va muvafaqqiyatlar bolaning tug'ilishi bilan bog'lanadi va shunga ishora qilinadi.

Muborakxonim *ko'ziga yosh oldi. Hakimjon "Yaxshi javob!" dedi. ("Muhabbat" qissasi)*

Shuningdek, o'zbek ismlari tizimining katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar tashkil qiladi. Bu jihatdan ham ismlarni bir nechta guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Bolaning tug'ilishi, farzandli bo'lish Ollohning xohish-irodasiga bog'lanadi: *Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Haqberdi, Xudoybergan, O'g'onberdi, Egamberdi, Berdirahmat*. Bunday ma'noli ismlar oxiri –ulla (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlarga tegishli:

Olloberganov*, qovog'ini solganicha, indamay orqasiga qaytadi, omborni ochadi, xotinning qo'lidan bankani jerkib oladi va yog' tortib beradi. ("Kimyogar" feleytonidan)*

2. Ism Allohning turli atributlarini anglatuvchi nomlarga –ulla, -bergan, -berdi, -ato kabi komponentli qo'shma va so'z ism sifatida tanlanadi: *Azizulla, Ahadulla, Samadulla, Fathulla, Xayrulla, Karimberdi, Xudoybergan;*

Rahmatilla *garang bo'lib qoldi: bu odam kim va nima maqsadda keldi? Bu gaplarni aytishdan murodi nima?("Qo'shchinor chiroqlari" 183- bet)*

3. Bolaga Allohning bandasi, quli, xizmatkori degan ma'noni anglatuvchi ismlar qo'yiladi. Bunday ismlarni alohida so'zlardan yoki komponentlaridan birida abdu-, -qul, -g'ulom ishtirok etgan nomlar tashkil qiladi: Masalan, *Obidjon huddi birov qitiqlayotganday, qiqilab:*

- ***Sattorqul*** *akamni bopladilar,- dedi.*
- *Ha, rais bopladilar. ..* ("Qo'shchinor chiroqlari" 17-bet)

O'zlariga kelib ko'zlarini ochganlaridan keyin ***Farmonqul*** *ona- bolani holi qo'yib chiqib ketdi.* ("Qo'shchinor chiroqlari" 28-bet)

Tasviriy ismlar ham turlicha tasnif qilinadi.

1. **Bolaning tug'ilgan vaqtini tasvirlovchi ismlar:**

- bolaning qaysi oyda, faslda tug'ilgani tasvirlanadi:

*Yusuf. (****Navro'zovga*** *ko'z qirini tashlab, botinolmay). Yangi qonun chiqmasdan oldin berganman* ("Tobutdan tovush").

1. **Bola tug'ilgan joyni tasvirlovchi ismlar:**

To'tiniso. Voy, ***Bo'stonbuvi****, sizning farishtangiz ulug' emasmi? Mening farishtamga nima qipti? Nega xotinlarni yerga urasiz! ("*Ayajonlarim*")*

O'rmonjon *hayron bo'ldi: bu haqda bir marta gap bo'lgan, tekshirilgan, bu da'vo puch chiqqan ediku, nega bu haqda yana gap qo'zg'oliptiyu bir emas,birdaniga uch kishi da'vogar bo'lib ketipti. ("Qo'shchinor chiroqlari" 147- bet).*

O'zbek ismlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'analari, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettira oladi. Ismlar shaxslarni o'zaro farqlash ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko'ra ism beruvchilar (nominatorlar)ning muayyan maqsadini ham ifodalaydi. Mana shu maqsad bolaga ism tanlash va yasash uchun asosiy, yetakchi motiv hisoblanadi. Mana shu maqsadda nominatorning, bevosita u mansub bo'lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, o'zbek antroponimlari ham lingvokulturologiyaning obyekti bo'la oladi.

Millatni o'zligini ko'rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Xalq o'g'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir.

Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi. Abdulla Qahhor o'zbek xalqining ana shunday maqollarini o'z asarlarida mahorat bilan qo'llab, xalqning hayotini, turmush

tarzini,etnologiyasini yoritib bergan. Shu sababli yozuvchi asarlarida uchrovchi o‘zbek xalq maqollarini lingvokulturologiyaning obyekti sifatida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Bu borada lingvokulturologik obyekt bo‘la oladigan maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz

- ***Mavlon. …Yo‘l bo‘yidagi teraklarni ko‘rdingmi?***
- ***Dehqonboy. Ko‘rdim…***
- ***Mavlon (kerilib). Men ekkanman!.. Tutni ko‘rdingmi?***
- ***Dehqonboy. Yaxshi o‘sibdi.***
- ***Mavlon. Men ekkanman!.. Uyni ko‘rdingmi? Yomonmi? To‘g‘ri, yaxshi ham emas. Lekin non ham non, non ushoq ham non. Kapalarda, yerto‘lalarda turganmiz… [1,26]***

non ham non, non ushoq ham non. Dunyoda o‘zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo‘lgan xalq bo‘lmasa kerak. Ulug‘larimiz ham “Nonday aziz bo‘lgin” deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan “Nonni ushatmay ye”, “Nonni bosma”, “Nonni ko‘zingga sur” deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo‘lgan e’tibor, o‘zbekona qarashdan darak beradi. nonni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofgarchilik yo‘qchilikka olib keladi, hatto bu gunoh ish sanaladi. Chunki, bu maqolda ana shu diniy qarash orqali xalqimizning milliy o‘ziga xosligi ifodalangan. Yuqoridagi misol orqali esa yozuvchi ushbu maqoldan pragmatik maqsadda ham foydalangan. Ya’ni o‘zbek xalqiga xos shukronalikni ifodalash, “uy yo‘qdan ko‘ra bor” degan ma’noni ochib berish uchun foydalangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, antroponimlar ham, maqollar ham lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti sanaladi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro tutashgan nuqtasini o‘rganadi, buning markazida esa maqollar turadi. Maqollarda xalqning tarixiy tajribasi, o‘tmishi aks etadi.

Antroponimlada esa bevosita u mansub bo‘lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor, Ayajonlarim, Toshkent,1988, 26-bet.
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponomikasi. Toshkent, Fan, 2013, B. 11.
3. Kenjayeva S.E. O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati. -Toshkent, 2011.

IJTIMOIY-IQTISODIY, ILM-FAN

BO'LIM 5.

TARIXI

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРИХИДАН (“ТУРКЕСТАНСКИЙ СБОРНИК” АСОСИДА)

Бахтиёржон Тўйчиев
магистрант,
Фарғона давлат университети,
Ўзбекистон, Фарғона

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада водий аҳолисининг қишлоқ хўжалиги муваффақиятлари, жумладан, жўхори ҳамда шоли етиштириш тажрибаси ва анъаналари, унинг аҳоли ҳаётидаги фойдали хусусиятлари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: жўхори, шоли, деҳқончилик тажрибаси, “бўза”, андава, “меҳмонхона”, шоли қипиғи, такрорий экин, чорва парвариши.

Фарғона водийси Марказий Осиё минтақасида энг қадимги тарихий-этнографик ва муҳим ижтимоий-иқтисодий макон бўлиб, ҳам ўтроқ, ҳам кўчманчи цивилизациянинг энг илғор тажрибаларини ўзига сингдириб ўзига хос маданиятга асос солган.

Асрлар давомида инсоният тараққиётида хўжалик шакллари ўзгариб, такомиллашиб борди. Жумладан, Фарғона водийсида ҳам ўзига хос деҳқончилик хўжалиги анъаналари шаклланди. Аҳолининг миришкорлиги, иқлимнинг деҳқончиликка қулайлиги, минералларга бой дарё сувларининг кўплиги ҳамда йил давомида қуёшли бўлиши деҳқончиликнинг ривожлантирувчи омиллардан бўлди.

Водий аҳолиси ҳаётида жўхори етиштиришда маълум муваффақиятларга эришилган. Кундалик озуқа бўлиш билан бирга, чорва молларини парваришлашда ҳам бу ўсимлик алоҳида аҳамият касб этган. Жўхори парваришлаш узоқ вақт талаб қилганлиги, унинг тезпишар навлари ҳали мавжуд бўлмаганлиги учун ушбу ўсимликни етиштириш аҳоли турмуш хўжалигида кенг ўрин олмаган. Кечки жўхори экилиши кузнинг илиқ келмаслиги натижасида жўхори доналарининг сувсиз қолишига сабаб бўлиб, ушбу омил ўз навбатида ҳосилдорликка таъсир этмасдан қолмаган. Шу билан бирга жўхорини қушлар ҳужумидан ҳимоялаш учун қўриқчилар ҳам муҳим ҳисобланган. Май ойи бошларида экилган ўсимликдан сентябр бошларида айрим ҳолларда октябрда ҳосил олинган. Бу даврда олинган маълумотларга кўра бир десятина майдондан олинган ҳосил қишда 10 та ҳўкизни боқиш учун етарли бўлган[1, 243].

Бундан ташқари аҳоли жўхоридан хуштаъм таом тайёрлаш мақсадида ҳам фойдаланган. Мош ва ловия қўшиб тайёрланган бу таом бугунги кунда ҳам тайёрланиб, “Кўча” номи билан машҳур. Анча тўйимли бўлиши билан бирга ҳамёнбоп бўлишлиги бу таомнинг кенг халқ оммаси ичида кенг тарқалишига сабабчи бўлган. Жўхори етиштиришдан аҳоли яна “бўза” тайёрлаш мақсадида ҳам фойдаланган. Маст қилувчи ичимлик ҳисобланувчи “бўза” тайёрлашда нафақат жўхоридан балки, арпа ва тарикдан ҳам фойдаланилган[2, 248].

Маҳаллий аҳоли томонидан узоқ вақт давомида ердан фойдаланиш, деҳқончилик хўжалигининг такомиллашуви, ерга бўлган талабнинг ортиши халқнинг ердан унумли

фойдалана бошлашига йўл очди. Жумладан такрорий экинлар экишда ҳам буни кўриш мумкин. Масалан, деярли барча деҳқон хўжалигининг асосий экини буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида шоли, мош каби маданий ўсимликлар етиштирилган. Бу ўсимликлар халқ оммасининг турли таомларининг таркибий қисми ҳисобланган.

Аҳоли шоли етиштиришда ҳам катта тажрибага эга бўлган. Асосан таом мақсадида етиштирилган шоли поясидан турли мақсадда фойдаланилган. Унинг похоли тупроқ билан қориштирилиб лой ҳосил қилингач, тош билан аралаштирилиб бино пойдеворини барпо этиш мақсадида ишлатилган. Бундай уйлар пойдевори намгарчиликка чидамлилиги билан ажралиб турган. Бундан ташқари шолининг янчилишидан чиққан қипиғи лой тайёрлашда ишлатилган. Бундай лой бинонинг андовасининг анча силлиқ чиқишини таъминлаган. Бугунги кунда бундай андова қилиш учун шоли қипиғи эмас балки, жуда майин қилиб янчилган буғдой поясидан фойдаланилади. Маҳаллий аҳоли орасида бу маҳсулот “дуку” номи билан машҳур. Шу билан бирга шоли етиштириш кундалик ҳаётда аҳолининг таомга бўлган эҳтиёжини қондирувчи бирламчи ўсимлик ҳисобланган. Жумладан, водий аҳолиси томонидан севиб истеъмол қилинадиган палов тайёрлашда гуруч навларига алоҳида эътибор қаратилган. Қўчқор ёғи ва гўшти билан тайёрланган ушбу таом кучли калорияга эга бўлиб, аҳолининг деҳқончилик маданияти учун айни муддао бўлган [3, 243].

Водийнинг айрим жойларида деҳқончилик хўжалиги то бугунга қадар етакчи бўлган ҳудудларда алоҳида-алоҳида кўчаларда махсус “меҳмонхона” ташкилланган. “Меҳмонхона”да ҳар куни деҳқонлар томонидан ошхўрлик ташкил қилинади. Эътиборли томони одам сони ошмасада, (“Меҳмонхона”га жамланганлар ўртача 10-15 кишидан иборат бўлади) таомга солинадиган гуруч миқдори кундан-кунга оширилиб борилади. Бу миқдор то киши бошига 1 кг гуручга етгунча давом эттирилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, водий халқи асрлар давомида нафақат илғор деҳқончилик хўжалиги ярата олди, балки, деҳқончилик хўжалигини турмуш тарзи билан моҳирона боғлай олди. Деҳқончилик хўжалиги аҳолининг асосий машғулотларидан бири бўлиш билан бирга барча кундалик ҳаёт тарзи, урф-одатлар ҳамда маросимларга ўз таъсирини кўрсатди. Ўлкада кенг ёйилган деҳқончилик, чорвачилик ҳамда боғдорчиликнинг кучли интеграцияси кузатилиб, бунда ҳосилнинг маҳсулдорлиги ортиб аҳолининг турмуш тарзининг енгиллашувига хизмат қилди.

Адабиётлар:

1. «Туркистон тўплами» («Туркестанский сборник»).Тошкент, Тошкентб 1999.
2. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари).-Т.: Янги аср авлоди, 2005. - Б. 36-74.

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДАГИ СИЁСИЙ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР. «ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ» ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

Махамадалиев Лутфилло
талаба,
Фарғона давлат университети,
O'zbekiston, Фарғона

АННОТАЦИЯ

Амир Темур ўзи барпо этган буюк давлатни миллий ва ахлоқий қадриятларига таяниб идора қилди. У ўзининг «Тузук»ларида раҳбарларнинг ахлоқли, адолатли бўлиши жамият, давлат ва миллат учун қандай катта аҳамиятга эга эканини кўрсатиб берди.

Ушбу мақолада «Темур тузуклари» асарининг аҳамияти ва қадр-қиммати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: темурийлар даври, темурийлар маданияти, давлат, жамият, “Темур тузуклари”, давлат бошқаруви.

Амир Темурнинг давлат бошқаруви тизими бутун ҳудудда ягона марказлашган сиёсий тартиб асосига қурилган эди. У дунёнинг 27 ўлкаси ва вилоятларини забт этиб, Ҳиндистон ҳамда Хитойдан Қора денгизга қадар, Сирдарё ва Орол денгизидан Форс қўлтиғига қадар ғоят катта ҳудудни қамраб олган марказлашган улкан салтанатга асос солди. Бундан ташқари Амир Темур давлатига Кичик Осиё, Сурия, Миср ва шимолий – ғарбда Қуйи Волга, Дон буйлари; шимолий – шарқда Балхаш кўли ва Или дарёсигача; жанубий – шарқда эса Шимолий Ҳиндистонгача бўлган мамлакатлар буйсундирилди. Амир Темур ҳаётлиги чоғидаёқ салтанатни асосан тўрт қисм (улус)га бўлиб, ўғил, набираларига тақсимлаб берган: Хуросон (1396), Журжон, Мозандарон ва Сейистон (маркази Ҳирот) Шоҳрух (1377 – 1447)га, Ғарбий Эрон, Озарбайжон, Ироқ ва Арманистон (маркази Табриз) Мироншоҳ (1366 – 1408)га, Форс, яъни Эроннинг жанубий қисми (маркази Шероз) Умаршайх Мирзо (1354 – 1394)га, Афғонистон ва Шимолий Ҳиндистон (маркази Ғазна, кейинчалик Балх) Пирмуҳаммад (1376 – 1407)га суюрғол қилиб берилган.

Амир Темур дунё тарихида биринчи бўлиб жамият ижтимоий таркибини 12 табақага ажратиб, уларнинг ҳар бирининг алоҳида мавқеи, манфаатларини, шунга мувофиқ келадиган давлат ва жамиятнинг ўзаро муносабатларини белгилаб берган. Улар қуйдаги ижтимоий тоифалардир:

- саййидлар, олимлар ва шайхлар
- катта тажрибага эга илмли кишилар
- дуо қилувчи тақводорлар
- лашкарнинг сипоҳлари, сарҳанг ва амирлар
- аскарлар ва халқ оммаси
- далат бошқаруви ишларини аъло даражада биладиган маслаҳатгўй доно ва ақлли кишилар
- вазирлар, котиблар, девон бошлиғи
- тиббиёт аҳли, мунажжим ва муҳандислар
- муҳаддислар ва муаррихлар
- тасаввуф вакиллари ва орифлар
- ҳунармандлар ва санъаткорлар
- ажнабий сайёҳлар ва савдогарлар

Амир Темур давлатида ҳам ҳуқуқий муносабатлар Қуръони Карим ва Ҳадиси шарифда баён қилинган тартиб – қоидаларга асосланган. Унинг ҳуқуқ ва қонун унсурлари «Темур тузуклари» да ўз аксини топган. Темур тузуклари – адолатли ҳамда кучли давлат барпо этишдаги муҳим қонун – қоидалар сифатида Амир Темурнинг ҳарбий ва сиёсий фаолиятидан

маълумот берувчи тарихий асар ҳисобланади. Амир Темур ҳаётининг сўнги йилларида ўзининг эсдаликлари ва тузукларини ёзиб қолдирди. «Темур тузуклари» нинг фанда қайд этилган илк нусхаси эски ўзбек тилида битилганлиги маълум. Асар ўртаосиёлик Мир Абу Толиб Ҳусайний ал-Аризий ат-Турбатий томонидан 1610 йили усмоний турк ҳокимларидан бири – Яман ҳокими Жаъфар Пошо (ҳукмронлик йиллари 1607 – 1612) нинг топшириғи билан форс тилига таржима қилинди ва дунёга «Тузуки Темурий» («Темур тузуклари») номи билан тарқалди. Бизга унинг форс тилидаги нусхаси ва форс тилидан ўзбек тилига таржимасининг уч нусхаси етиб келган. Энг тўлиқ нусхаси «Малфузоти Темурий» деб номланган ва у Россиянинг Санкт – Петербург шахридаги Салтиков – Шчедрин номли кутубхонасида сақланмоқда. Ушбу нусха Тошкентда 2000 йили чоп этилди.

Асар икки қисм, 56 та банддан иборат. Биринчи қисмда Амир Темурнинг етти ёшидан то вафотига қадар (1342 – 1405 йил 18 февраль) кечган ҳаёти ва ижтимоий – сиёсий фаолияти, унинг Мовароуннаҳрда марказий ҳокимиятни қўлга киритиши, ижтимоий тарқоқликка барҳам бериши ва марказлашган давлат тузиши, қўшни юрт ва 27 мамлакатни, жумладан, Эрон, Афғонистон,Озарбайжон, Грузия ва Ҳиндистонни ўз тасарруфига киритиши, Олтин Ўрда ҳукмдори Тўхтамиш, турк султони Боязид I Йилдиримга қарши ҳарбий юришлари, улкан салтанатини мустаҳкамлаш учун турли ижтимоий табақаларга нисбатан қандай муносабатда бўлганлиги буюк соҳибқирон тилидан ихчам тарзда баён этилган.

Иккинчи қисмида Соҳибқироннинг номидан айтилган ва унинг тожу тахт ворисларига аталган ўзига хос васият ва панду насиҳатларидан иборатдир.

Адабиётлар:

1. Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент, Sharq, 1996.
2. Karimov, U., & Ergasheva, D. (2020). EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS. Теория и практика современной науки, (5), 18-20.

BO'LIM 6.

IQTISODIYOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRITILAYOTGAN XORIJIY INVISTITSIYALARNING STATISTIK TAHLILLARI

Mo'minova Hilola Qobuljon qizi
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi, O'zbekiston, Toshkent

Umarov Suhrob Rustamovich
Ilmiy rahbar, i.f.d., professor, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti, O'zbekiston, Toshkent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga kiritilayotgan xorijiy invistitsiyalarning statistik tahlillari haqida so`z borgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Buni 2020-2021-yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin.

Kalit so`zlar: xorijiy invistitsiya, iqtisodiyot, kredit, moliya, mahsulot.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan to'g'ri va asoslangan investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni iqtisodiy muhit shartsharoitlariga muvofiq rivojlantirish, ularni jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalaridagi faolligini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish jarayonining modernizatsiyalashuvi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan har yili amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning kun tartibidagi asosiy masalalaridan biri bo'lib, investitsiyalarni mamlakat milliy iqtisodiyotiga jalb qilish masalasi turibdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritish bo‘yicha Rossiya, Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlari yetakchilik qildi, respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlarning umumiy soni 50 tadan oshdi.

2019 yil davomida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalarni o‘zlashtirish hajmi 220,7 trln so‘mga yetkazilib, tasdiqlangan yil prognoziga nisbatan 2 barobarga o‘sdi. Bu haqda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi xabar bermoqda.

Qayd etilishicha, asosiy kapitalga investitsiyalar xajmi 189,9 trln so‘mni, 2018 yil ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘sish tempi esa 1,3 barobarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018 yilda 30 foizdan amaldagi 36,2 foizga qadar o‘sdi (umumiy investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2019 yil natijalari bilan 42,1 foizni tashkil etdi).

Hisobot davrida 2,8 mingdan ortiq ijtimoiy, infratuzilma va ishlab chiqarish obektlari foydalanishga topshirildi: 145 ta yirik ishlab chiqarish obektlari,167 ta yirik hududiy loyihalar, 2,5 mingdan ziyod ijtimoiy va infratuzilma obektlari.

Investitsiya faoliyatining sezilarli o‘sishi 13,3 mlrd. dollarni tashkil etgan xorijiy investitsiyalarning oqimi va o‘zlashtirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 9,3 mlrd. dollar (shundan asosiy kapitalga – 6,6 mlrd. doll.;)
- davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 4,0 mlrd. dollar (shundan asosiy kapitalga – 3,2 mlrd dollar) o‘zlashtirildi.

Bunda o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy investitsiyadagi ulushi 37 foizga yetkazildi (taqqoslash uchun 2018 yilda bu ko‘rsatkich 10,5 foizni tashkil etgan).

Markaziy Osiyo mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarning o‘sishi o‘rtacha 8-10 foizni tashkil etgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 2018 yilning shu davriga (2,9 mlrd.dollar, shundan asosiy kapitalga – 1,6 mlrd dollar) nisbatan 3,2 barobarni tashkil etdi (9,3 mlrd dollar, shundan asosiy kapitalga – 6.6 mlrd dollar) va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o‘sish sur'atlari bo‘yicha respublika yetakchilikni ta'minladi.

Yirik investor-davlatlarning umumiy jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlardagi ulushi 34 foizgacha qisqardi.

2018 yil ko‘rsatkichlariga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilishning faol o‘sishi elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish (o‘sish – 7,5 barobar), metallurgiya (o‘sish – 4,6 barobar), to‘qimachilik (o‘sish – 2,5 barobar), charm-poyafzal (o‘sish – 2,1 barobar) va neft-gaz (o‘sish – 2 barobar) tarmoqlarida kuzatildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar oqimining o‘sish sur'ati hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarda ham mustahkamlanib borib, ularning umumiy hajmi 2019 yilda 4,8 mlrd dollarni (shundan asosiy kapitalda – 4,2 mlrd dollar) tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 4 baravar va 2017 yilga nisbatan 24 baravar ko‘paydi. Faqat xorijiy kapital ishtirokida hududlarda umumiy qiymati 858,5 mln dollarga teng 167 ta loyiha foydalanishga topshirildi.

Investitsiya dasturiga muvofiq 2020-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga qariyb 233,2 trln. so‘m kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan, bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning – 7,1 mlrd. dollar, davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 2,7 mlrd. dollar o‘zlashtirilishi rejalashtirilmoqda.

2020-yilda ijtimoiy, infratuzilma va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan 2 mingdan ziyod obyektlar foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan: 206 ta yirik ishlab chiqarish quvvatlari, 240 ta hududiy ishlab chiqarish obyektlari, 1,6 mingta ijtimoiy va infratuzilma ahamiyatiga ega obyektlar.

2021-yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston umumiy hajmi 4,8 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qildi, bundan 3,2 mlrd dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga to‘g‘ri keldi.

Xulosa. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo’lgan katta e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag’batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o’ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- birinchidan, inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiymat o’sishiga ta’sirini kamaytirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko’paytirish;
- ikkinchidan, investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, ya’ni xomashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish;
- uchinchidan, chet el investorlariga yanada qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida rag’batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini investorlar uchun ham soddalashtirish;
- to’rtinchidan, xorijiy iqtisodiy sub’ektlar bilan o’zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish va ular bilan erkin investitsion iqtisodiy zonalarni tashkil etish;
- beshinchidan, infratuzilmasi mavjud va rivojlanishi qulay bo’lgan joylarga investorlarni jalb qilish orqali sanoatni tizimli rivojlantirish;
- oltinchidan, uzoq muddatli, past foizli to’g’ridan-to’g’ri xorijiy kredit resurslarini jalb etish ishlarini kuchaytirish;

- yettinchidan, xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda xorijiy investorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar tashkil etish.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida, kelgusida mamlakatimizda investitsion siyosatni to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Farxutdinov I.Z. Investitsionne pravo: uchebno-prakticheskoe posobie / I.Z. Farxutdinov, V.A. Trapeznikov. - M.: Volters Kluver, 2006. - 232-238 s.
2. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: Mehnat, 2003. 233-240 b.
3. http://www.lex.uz/
4. http://www.stat.uz/

ДЛЯ ЗАМЕТОК

«СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК»

Научный журнал

№ 19(164)
Май 2021

Часть 11

В авторской редакции
Мнение авторов может не совпадать с позицией редакции

Свидетельство о регистрации СМИ: ЭЛ № ФС 77 - 68051 от 13.12.2016 г.

Издательство «Интернаука»
125424, Москва, Волоколамское шоссе, д. 108, цокольный этаж,
помещение VIII, комн. 4, офис 33
E-mail: *mail@internauka.org*

Отпечатано в полном соответствии с качеством предоставленного
оригинал-макета в типографии «Allprint»
630004, г. Новосибирск, Вокзальная магистраль, 3

16+

Свидетельство о регистрации СМИ:
ЭЛ № ФС77-68051 от 13 декабря 2016